

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



**AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA**  
mutaxassisligi bo'yicha klinik ordinatorlarni tayyorlash

**O'QUV (MODUL) DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	910 000	- Sog'liqni saqlash
<b>Mutaxassislik:</b>	14.00.01	- Akusherlik va ginekologiya

**Toshkent – 2023**

### **Tuzuvchilar:**

- F.I. Shukurov** - TTA, Malaka oshirish fakulteti Akusherlik va ginekologiya kafedrası mudiri, t.f.d.
- D.D. Saidjalilova** - TTA, Malaka oshirish fakulteti Akusherlik va ginekologiya kafedrası professori, t.f.d.
- M.O. Abdiyeva** - - TTA, Malaka oshirish fakulteti Akusherlik va ginekologiya kafedrası assistenti, t.f.n.

### **Taqrizchilar:**

- F.D.Karimova** - TXKMRRM, Akusherlik va ginekologiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- B.B. Qurbonov** - TASHPMI akusherlik ginekologiya va bolalar ginekologiyasi kafedrası mudiri, t.f.d.

O'quv (modul) dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'limi muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023 yil \_ iyundagi \_\_-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

**Ordinatura mas'uli**

**M.O. Abdiyeva**

**Kafedra mudiri**

**F.I. Shukurov**

**Bo'lim boshlig'i**

**A.A. Imamov**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor**

**F.L. Azizova**

## **1. Mutaxassislikni dolzarbligi va ahamiyati, sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rni.**

Klinik ordinatura (rezidentura) – diplomdan keyingi talim tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan talim, shifokorlarning uzluksiz kasbiy talim tizimining tarkibiy qismidir. Akusherlik va ginekologiya mutaxassisligidan klinik ordinatura (rezidentura) - tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilari uchun diplomdan keyingi o‘qishni bir shakli bo‘lib, undan keyin shifokorga akusher-ginekolog malakasi beriladi.

Namunaviy dastur O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 yil 20 apreldagi PF-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590 sonli “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 6 maydagi PQ-4310 sonli “Tibbiyot va farmatsevtika ta‘limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666 sonli “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 8 noyabrda PQ-4513-sonli «Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida»gi, farmonlari qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, kredit-modulli ta‘lim jarayoniga o‘tish munosabati bilan, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2019 yil 12 avgustda 209-sonli “Tibbiyot va farmatsevtika oliy va o‘rta maxsus kasb xunar ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan.

Klinik ordinatura (rezidentura)ni bitirgan mutaxassis barcha zamonaviy tibbiy muammolarni yechimida malakali yordam kursata olish kerak, xar xil infeksiyon kasalliklarda (OITS, COVID-2019 va boshkalar) xomilador ayollarga ta‘sirini va ularda asoratlarini oldini olish, kasallangan xomiladorlarni olib borish taktikasi, axoli orasida sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovkatlanish kabi masalalar to‘g‘risida ommaviy tushuntirish ishlarni olib borishni bilishi shart.

Ushbu o‘quv dastur kunduzgi ta‘lim shakldagi 2 o‘quv yiliga mo‘ljallangan va kredit-modul tizimi asosida tuzilgan. Dasturda mutaxassis - akusher-ginekolog aholiga akusherlik va ginekologik yordamni tashkillashtirishi, mustaqil va samarali faoliyat yuritishi uchun barcha tegishli nazariy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni egallash uchun yetarli hajmdagi vazifalar o‘z aksini topgan.

O'qishni birinchi yilida klinik ordinator (rezident) tomonidan fiziologik va patologik akusherlikning asoslarini, akusherlikda shoshilinch vaziyatlar, asoratlari va kasalliklarining rivojlanishi, xomilador ayol va xomila axvolini aniklash, tibbiyotda dolzarb muammolar (COVID-19) kabi xomiladorlarda virus kasalliklarni tashhislash va davolash usullariga alohida e'tibor qaratiladi. O'qitishning ikkinchi yilida klinik ordinator (rezident) ginekologiya fanini asoslari, ayol organizmini rivojlanishi, ginekologik kasalliklar va ularni tashxislash, davolash, asoratlarni oldini olish masalalari bo'yicha bilimlarni egallashi rejalashtirilgan.

2 yillik o'qish davrida klinik ordinator (rezident) asosiy mutaxassislik modullardan tashqari umummetodologik va nomutaxassislik yondosh tibbiy modullarini, yondosh klinik mutaxassisliklardan patologik anatomiya, operativ xirurgiya va topografik anatomiya, klinik farmakologiya, urologiya bo'yicha ham bir qator bilimlarni o'zlashtirishi ko'zda tutilgan.

Respublikamizda sog'likni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan qator islohatlarni va normativ-huquqiy hujjatlarni inobatga olgan holda ushbu modul dasturida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, akusherlikda patologik xolatlar va asoratlarni va ginekologik kasalliklarini oldini olish, zamonaviy diagnostika va turli xil patologik xolatlarni davolashning yuqori texnologiyali usullarini qamrab olishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari dunyoviy va mahalliy epidemiologik holatni inobatga olgan holda, yuqumli bo'lgan kasalliklarda (COVID-19 kabi) shifokor akusher-ginekolog taktikasi, yuqumli bo'lgan bemorlar (xomilador va tukkan ayollar) bilan ishlash, diagnostika va davolash xususiyatlari, ushbu vaziyatlarda akusherlik va ginekologik bo'limlarni ish faoliyatini moslashtirish, xususiy ximoya qoidalariga rioya qilish, ishlatilgan buyumlarni zararlantirish kabi savollarga alohida mavzular ajratilgan.

Klinik ordinator (rezident)ni o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta'limdan keng foydalanish ko'zda tutilgan.

## **2.O'quv (modul) dasturining maqsadi va vazifalari.**

**2.1.O'quv (modul) dasturining maqsadi** - klinik ordinator (rezident)da kerakli hajmdagi zamonaviy bilimga, mahoratga, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni sog'liqni saqlash muassasalarida (idora/tashkilotlarda) mustaqil mutaxassis sifatida, tibbiyotda dolzarb muammolar (COVID-19 kabi) yechimini biladigan va tashkillashtirish ishlashga tayyorligini shakllantirish.

### **2.2.O'quv (modul) dasturining vazifalari:**

-klinik ordinator (rezident)larni sog'liqni saqlash tizimining va tugruk komplekslar muassasalari bo'limlarida yuqori malakali akusher-ginekolog sifatida mustaqil ishlashga tayyorlash;

-sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida birlashtirilgan axoliga malakali tibbiy yordam ko'rsata oladigan, maqsadli profilaktik chora-tadbirlarni o'tkaza oladigan mutaxassisni tayyorlash;

-sog'liqni saqlash tizimining barcha muassasalari ishiga rahbarlik qilish;

- dunyoviy va mahalliy epidemiologik holatni inobatga olgan holda, yuqumli bo'lgan kasalliklarda (COVID-19 kabi) shifokor akusher-ginekolog taktikasi, yuqumli bo'lgan bemorlar (xomilador va tukkan ayollar) bilan ishlash, diagnostika va davolash xususiyatlari.

Shulardan kelib chiqqan holda:

1. Yuqori malakali akusherlik va ginekologik yordamni ko'rsatish uchun nazariy bilimlarni egallash va takomillashtirish, tayyorgarlik darajasi va sifatini oshirish;

2. Kasbiy vazifalarni mustaqil va sifatli bajarish uchun shifokor akusher-ginekolog zarur amaliy ko'nikma, kompetentsiyalarni egallash va takomillashtirish;

3. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashxis qo'yish, differentsial tashxis qo'yish va davolashga imkon beradigan klinik tafakkurni shakllantirish;

4. Tashkilotlar va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini tahlil qilish va ularning ishini oqilona rejalashtirish uchun sog'liqni saqlashni tashkil etish, sog'liqni saqlashning huquqiy va iqtisodiy masalalari bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lish;

5. Tibbiy amaliyotda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Klinik ordinator (rezident)ning vazifasi o'quv jarayoni vaqtida akusherlik va ginekologiya sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish, klinik fikrlash ko'nikmalarini va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, qo'shimcha tekshirish usullarini bajarish ko'nikmalarini o'zlashtirish, ularni sharhlash, akusherlik va ginekologik tugruk komplekslar tibbiyot muassasalari ishini tashkil qilish usullarini o'zlashtirish, zamonaviy diagnostika turlarini bilish, konservativ va operativ yordam kursata olish.

Klinik ordinator (rezident)larning kasbiy tayyorgarligi asosiy va unga aloqador (yondosh) fanlarni chuqur o'rganishga, shuningdek, mahalliy va jahon tibbiyotining so'nggi yutuqlari bilan tanishish va rivojlantirishga qaratilgan.

Mutaxassisning bemorlar bilan aloqasi tibbiy etika va deontologiya tamoyillarini bilishga asoslangan.

### ***2.3. Mutaxassisdan kutilayotgan natijalar:***

-sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati

Klinik ordinator (rezident)ni (rezidenturani) yakunida akusherlik va ginekologiya vrach-mutaxassisi:

- kerakli darajada nazariy va amaliy kunikmalarni yukori darajada zamonaviy

uslubda bilish kerak;

-ambulator va statsionar sharoitda xomiladorlarni va ginekologik kasallallarni tekshirish va davolash kerak.

**Akusherlik moduli bo'yicha klinik ordinator (rezident)larning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:**

**Klinik ordinator (rezident):**

-sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati;

-O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (kontsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari);

-sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar;

-sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari;

- dunyoviy va mahalliy epidemiologik holatni inobatga olgan holda, yuqumli bo'lgan kasalliklarda (COVID-19 kabi) shifokor akusher-ginekolog taktikasi, o'ta yuqumli bo'lgan bemorlar (xomilador va tukkan ayollar) bilan ishlash, diagnostika va davolash xususiyatlari, shifokor ish vaktida uzini ximoya qilish usullarini, chakaloklarni virus kasalligini yuktirmaslik yullarini;

-akusherlik va perinatalogiya zamonaviy funktsional diagnostika usullari;

-fiziologik homiladorlikdagi o'zgarishlar va fetoplatsentar tizim tuzilishi, rivojlanish bosqichlari; ontogenezning qaltis davrlari;

- tug'ruq boshlanishi sabablari;

-chaqaloqlar infeksiyalari; chaqaloqlarda tug'ruq jarohatlari;

-gametopatiyalar, embriopatiyalar, fetopatiyalar, neonatopatiyalar;

-homiladorlar qusishi ilmiy tamoyillari;

-homiladorlardagi gipertenziv holatlar: zamonaviy terminologiya, etiologiya, patogenez, klinika;

-homiladorlik va somatik kasalliklar (SK);

-odam immun tanqisligi sindromi (OITS);

-tug'ruq faoliyatining nuqsoni va tug'ruqni faol olib borish usullari;

-homiladorlik va ayrim akusherlik asoratlari va holatlarida tug'ruqning kechishi;

-xomiladorlik vaktida va tug'ruqdan keyingi davrda (COVID-19 kabi) infeksiyon kasalliklar **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**

-homiladorlik va tug'ruq vaqtidagi asoratlar rivojlanishi omillarini;

-homilaning yurak faoliyatini baholash usullarini; homila o'sishi monitoringi, o'sishdan orkada kolish sindromini, homila nuqsonlarini skriningini, homila holati va akusherlik xavfni baholashni;

-gormonal va immunologik tekshiruvlarni, kolpotsitologiyani, endoskopik

tekshiruv usullarini;

-tug‘ruqning boshlanishini tashxislash, uning klinik kechishini, homila boshi bilan kelganda tug‘ruq biomexanizmini;

-tug‘ruqdan keyingi davr fiziologiyasi, klinik kechishini;

-homila noanik xolati, chaqaloq asfiksiyasi, diagnostika usullarivadavolashprintsiplari, chaqaloqreanimatsiyasitamoyillarini;

-homila va chaqaloqlardaRh-antigen va ABO tizim buyicha gemolitik kasalligini;

-homiladorlar qusishi, etiologiyasi va patogenezini, ko‘p va kam uchraydigan toksikozlar klinikasini, davolashni, homiladorlar qusishining kompleks terapiyasini;

-homiladorlardagi gipertenziv buzilimlarni zamonaviy tashxislash, davolash va profilaktika usullarini, magnezial va antigipertenziv davo, homiladorlik va tug‘ruqni olib borish;

- homiladorlardagi gipertenziv buzilimlarni asoratlarini (tarqalgan tomirichi qon ivish (TTIQI) sindromi, HELLP-sindrom, homiladorlar jigar yog‘li gepatozini) tashxislash, davolash va profilaktika usullarini, rehabilitatsiyasini;

-yurak, qon–tomir kasalliklarda homiladorlikning kechishi: orttirilgan va tug‘ma yurak nuqsoni, gipertoniya kasalligi, arterial gipotenziya, varikoz kasalligi; homiladorlikni olib borish va kuzatish tamoyillari, muddatidan oldin homiladorlikni to‘xtatishga ko‘rsatma, tug‘dirishda akusherlik taktikasini tanlashni;

-jigar (turli etiologiyali gepatitlar, tsirroz, xolestaz) va buyrak (siydik yullari infeksiyasi, o‘tkir asoratlangan va asoratlanmagan pielonefrit, glomerulonefrit, siydik tosh kasalligi) kasalliklarida homiladorlikni kechishi va tug‘ruqni olib borishni;

-qon kasalliklarida (kamqonliklar, leykozlar, Verlgof, Villebrand kasalliklari) homiladorlikni kechishi va tug‘ruqni olib borishni;

-qandli diabet, qalqonsimon bez kasalliklarida va semizlikda homiladorlikning kechishi va tug‘ruqni olib borishni;

-ko‘z kasalliklari bor ayollarda xomiladorlik va tug‘rukni olib borish;

-xomiladorlarda suyak-mushak sistemasi kasalliklari kechishi va olib borish;

-nevrologik kasalliklari bor ayollarda xomiladorlik va tug‘rukni olib borish;

-homiladorlikda nafas olish kiyinlashishida (bronxial astma, o‘tkir respirator infeksiya, pnevmoniya), (COVID-19 kabi) infeksiyon kasalliklar homiladorlikning kechishi, muddatidan oldin homiladorlikni to‘xtatishga ko‘rsatma va tug‘ruqni olib borishni, chakalokni kasallanishini oldini olish;

-homiladorlik va o‘tkir qorinni (appenditsit, o‘t-tosh kasalligi; o‘tkir ichak tutilishi; mioma tugunini nekrozi, tuxumdon kistasi oyoqchasining buralishi, peritonit);

-homilani ko‘tara olmaslik turlari (odatiy homilani ko‘tara olmasligi,

rivojlanmagan homiladorlik, muddatdan oldingi tugʻruq, qogʻonoq pardalarini muddatdan oldin yirtilishi, istmiko-tservikal yetishmovchilik) etiopatogenezini, klinikasi va ularni davolash usullarini, muddatiga yetmagan homiladorlikda kesar kesishni;

-onadan homilaga OITV infektsiya transmissiyasini, antiretrovirusli terapiyani, tugʻdirish usullarini, onadan homilaga oʻtuvchi OITV infektsiyalar profilaktikasini, tibbiy xodimlarga OITV infektsiya oʻtishining oldini olish chora-tadbirlarini;

-akusherlikda qon ketish sabablarini, normal joylashgan yoʻldoshning barvaqt koʻchishi (NJYBK) va yoʻldoshning oldinda kelishining klinikasi, tashxislash, akusherlik taktikasi va profilaktikasini;

-kindik tizimchasini tushib kolishi klinikasi, tashxislash va akusherlik taktikasi;

-yoʻldoshning birikish nuqsonlarini (yoʻldoshning qattiq birikishi va oʻsib kirishining) klinikasi, tashxislash va akusherlik taktikasini,

-yoʻldosh qismlari ushlanib qolishi yoki ajralgan yoʻldoshning qisilib qolishining klinikasi, tashxislash va davolash taktikasini;

-atonik qon ketishining klinikasi, tashxislash va davolashni;

-tashqi jinsiy azolar, oraliq, qin va bachadon boʻyni jarohatining sabablari, tashxislash va davolashni, bachadon yorilishining sabablari, tashxislash, qiyosiy tashxislash, jarrohlik usuli bilan davolash va profilaktikasini;

-bachadon tashqariga chiqishi sabablari, davolashni;

-simfiz ochilishi va yorilishi klinikasi, tashxislash va davolashni;

-akusherlik oqmalari: etiopatogenez, tashxislash va davolash, profilaktikasi;

-gemorragik shokning etiopatogenezi, bosqichlari, tashxislashni, davolashni;

-tarqalgan tomirichi qon ivish (TTIQI) sindrom rivojlanish sabablari va mexanizmini, oʻtkir TTIQI-sindrom kechishi tasnifi, klinikasi, tashxislash, davolashni, TTIQI-sindrom surunkali turlarini tashxislash va davolashni;

-tugʻruqda koʻp qon yoʻqotgan ayollarda trombopatiyani oldindan baholashni;

-muddatdan oʻtgan homiladorlikni sabablari, tashxislash va davolashni;

-indutsirlangan tugʻruqqa ona va homila tomonidan koʻrsatmalar, tugʻruqni qoʻzgʻatish muddati va usulini; indutsirlangan tugʻruqni olib borish taktikasini, ogʻriqsizlantirish usulini, antenatal homila oʻlimida indutsirlangan tugʻruqni olib borish taktikasini;

-zamonaviy akusherlikda tor chanoq, tugʻruqdagi homila boshi va ona chanogʻini disproportsiyani tashxislashni, tugʻruqni olib borishni, asoratlarini;

-preliminar davr, tashxislash usullari, preliminar davrda homiladorni olib borish taktikasini;

-tugʻruq faoliyati nuqsoni tasnifi, uning sabablari, klinikasi va har xil turdagi



tugʻruq nuqsonlarida tugʻruqni olib borish taktikasini, tugʻruqni boshqarishda qoʻllaniladigan vositalarning farmokodinamikasi va farmokokinetikasini;

-koʻp homilalikda, homilaning koʻndalang va qiyshiq joylashishida, homiladorlikning kechishi va tugʻruqni;

-koʻpsuvlilik va kamsuvlilikda, bachadon chandigʻida, yirik homilada, kindik tizimchasining tushishida, jinsiy aʼzolar patologik oʻzgarishida, yelkalar distotsiyasida, homila antenatal oʻlimida va boshqa asoratli omillarda homiladorlikning kechishi va tugʻruqni olib borishni;

-kogʻonok suvlari bilan emboliyasi va oʻpka arteriyasi tromboemboliyasi sabablari, klinikasi, tashxislash va davolashni;

-akusherlik qisqichlari, vakuum-ekstraksiya, homilani chanogʻidan ekstraksiya qilish jarrohligiga koʻrsatmani, jarrohlikdan keyingi davrini olib borishni;

-kesar kesish jarrohligiga koʻrsatma, xamda tezkor kesar kesishga kursatmalar (COVID-19 virusli kasalliklar ogʻir kechishida), operatsiyadan keyingi davrni olib borish, asoratlarni;

-tugʻruqdan keyingi septik kasalliklar lokal shakllarining etiopatogenezi, klinik turlari, tashxislash va davolash, mastit va uning profilaktikasini, tugʻruqdan keyingi septik kasalliklarning generallashtirilgan shakllari, kesar kesishdan keyingi akusherlik peritoniti, sepsis va toksik shokning etiopatogenezi, klinik kechishi, tashxis, davolash, profilaktikasini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

-anamnez yigʻish, tashqi akusherlik koʻrikni oʻtqazish;

- virusli va yukimli kasallikga chalingan (COVID-19) xomiladorlarni kurik va davolashda tibbiyot xodimlar va boshqa kasallarni ximoya taktikasi tashkillash;

- gormonal. immunologik tekshiruvlar oʻtqazish;

-tibbiy – genetik konsultatsiya oʻtqazish;

-homila xolatini tashxislash, homilaning yurak faoliyatini baholash;

-homiladorlik va tugʻruqning muddatini aniqlash;

-homiladorlik va fetoplatsentar tizim holatini tashxislash;

-ultratovush skanerlash, homilani biofizik holatini aniqlash;

-kolpotsitologiyani bajarish;

-qogʻonok suvini tekshirish (amnioskopiya, amniotsentez);

-homiladorlar qusishini davolash va profilaktikasi olib borish;

-gipertenziv buzilimlarni va uning asoratlarini intensiv davolash;

-eklampsiyada birinchi yordamini oʻtqazish, asoratlar oʻtkazgan ayollarni reabilitatsiya qilish;

-bachadon boʻynini yetilganlik darajasini aniqlash (Bishop shkalasi);

-tugʻruqning boshlanishini tashxislash, uning klinik kechishi, tugʻruqni zamonaviy olib borish va ogʻriqsizlantirish;

- boshi va chanog‘i bilan kelganda tug‘ruqni olib borish va bo‘lishi mumkin bo‘lgan asoratlarning oldini olish, partogramma to‘ldirish, tug‘ruqning III davrini faol olib borish, yo‘ldosh butunligini aniqlash;
- homila chanog‘i bilan kelganda kuyidagi (Sovyanov, Lovset, Moris-Smelli-Veyt, klassik) ko‘nikmalar bajarish;
- bachadon bo‘ynini ko‘zgularda tekshirish, tug‘ruq yo‘llarini yumshoq tuqimalarini tekshirish, bimanual tekshiruv o‘tqazish;
- bachadon bo‘yni, qin va oraliq jarrohatlarini tikish;
- postplatsentar bachadon ichi vositasini (BIV) qo‘yish;
- gematoma ochish amaliyotini bajarish;
- chaqaloqni Apgar shkalasi bo‘yicha baholash, issiqlik zanjirini saqlashni ta‘minlab berish, chaqaloq reanimatsiyasini o‘tqazish;
- epiziotomiya, epiziorrafiya va perineorrafiya o‘tqazish;
- tug‘ruqdan keyingi davrni olib borish, tug‘ruqdan keyingi davrda ixtiyotiriy jarrohlik sterilizatsiyasi (IJS) amaliyotini bajarish;
- kritik holatlarni aniqlash va olib borish;
- bemorni birlamchi tez baholash va tezkor yordammi o‘tqazish;
- asoratlar o‘tkazgan ayollarni reabilitatsiya qilish;
- yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlash (fiziologik va patologik);
- yo‘ldosh oldida kelishini va NJYBKni tashxislash, olib borish va bo‘lishi mumkin bo‘lgan asoratlarning oldini olish;
- tug‘ruqdan keyingi qon ketishini bosqichma-bosqich to‘xtatish;
- yo‘lodoshni qo‘l bilan ajratish va chiqarish, bachadon bo‘shlig‘ini qo‘l bilan tekshirish operatsiyasini bajarish, qorin aortasini bosish, bachadonni ikki qo‘l bilan kompressiyani o‘tqazish;
- pastki-o‘rta laparotomiya, Djoel-Koxen va Pfannenshtil bo‘yicha laparotomiya bajarish;
- 3 nafar qon–tomirlarini bog‘lash, B-Linch bo‘yicha choklarni qo‘yish jarrohligini bajarish;
- bachadon amputatsiya, ekstripatsiya jarroxligini bajarish;
- gemorragik shokga qarshi kurashish, gemotransfuziyani bajarish, TTIQI-sindrom profilaktikasi va davolash;
- ona va homila ko‘rsatmalariga asosan har xil usullar bilan tug‘ruqni induksiyalash (kog‘onok pardalarini ko‘chirish; amniotomiya o‘tqazish, oksitotsin va glandin Ye qo‘llash);
- tug‘ruqda og‘riqsizlantirish, tug‘ruqdan va jarrohligidan keyingi davrda og‘riqsizlantirish;
- indutsirlangan tug‘ruqni olib borish; shu bilan birga
- tug‘ruqdagi homila boshi va ona chanog‘ini disproportsiya xolatlarini

aniqlash va olib borish;

-ko'psuvlilik va kamsuvlilikda, yirik homilada, kindik tizimchasining tushishida, jinsiy a'zolar patologik o'zgarishida, bachadon chandig'ida, muddatidan o'tgan homiladorlikda va boshqa asoratli omillarda tug'dirish;

-akusherlik qisqichlari, vakuum-ekstraksiya yordamida tug'ruqni tugatish;

-homilani chanog'idan ekstraksiya qilish;

-kesar kesish operatsiyasi bajarish;

-qorin bo'shlig'ini drenajlash;

-homilani yemirish operatsiyasi bajarish;

-akusherlik jarrohligida og'riqsizlantirish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

**Ginekologiya moduli bo'yicha klinik ordinator (rezident)larning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:**

-sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati;

-O'zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (kontseptsiya, tamoyillar, asosiy yo'nalishlari), axoli orasida sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovkatlanish kabi masalalar to'g'risida ommaviy tushuntirish ishlarni olib borish;

-sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar;

-sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari;

-ayollar reproduktiv tizimining tuzilishi, rivojlanish davrlari, faoliyati va uning boshqarilishi;

-amenorreya turlari;

-har xil yoshdagi ayollarda bachadondan qon ketishni davolash usullari;

-ayollar jinsiy a'zolari yallig'lanish kasalliklari, jinsiy yo'llar orqali yuquvchi kasalliklar (JYOYuK) va ularni davolash tamoyillari;

-homiladorlikning erta davrida qon ketishi sabablari;

-ayollar jinsiy a'zolari fon va rak oldi kasalliklari;

-ayollarda seksual buzilishlari, ayollar bepushtligi, shuningdek oilani rejalashtirish va zamonaviy kontratseptsiya *haqida tasavvurga ega bo'lishi.*

-ginekologik kasalliklar simptomatologiyasini, bioximik, gormonal, bakteriologik, mediko – genetik, radioimmun, klinik tashxislash usullarini;

-ginekologik kasalliklarni instrumental tashxislash usullari: punktsiya, biopsiya, ba'zi endoskopik tekshiruvlarni;

-ginekologik kasalliklarni nur tashxislash usullari (KT, MRT, kraniografiya, gisterosalpingografiya) ni;

-ginekologik kasalliklarni ultratovush tashxislash usullari, transabdominal va transvaginal exografiyasini;

-ayollar reproduktiv tizimi buzilishini funktsional tashxislash usullarini, asosiy tasnifi, sabablarini;

-jinsiy differentsiyallanish buzilmagan holda jinsiy rivojlanish nuqsoni, klinikasi, tashxislash va davolash (vaqtdan oldin jinsiy yetilish, jinsiy yetilishdan

orqada qolish) ni;

-jinsiy differentsiyallanish buzilganda jinsiy rivojlanish nuqsoni, klinikasi, tashxislash va davolash (tug‘ma adrenogenital sindrom (TAS), viril sindrom, gonada disgeneziyasi (GD), qin va bachadon rivojlanish nuqsonlari) ni;

-buyrakusti giperandrogenimiyasi patogenezi, klinika, qiyosiy tashxislash va androgenital sindromning postpubertat shakli, davolashni;

-birlamchi va ikkilamchi amenoreya tasnifi, klinik shakllari, tashxislash va davolashni;

-tuxumdonlar rezistentligi sindromi va tuxumdonlar bo‘shab qolganlik sindromi, patogenezi, klinika, tashxislash va davolashni;

-birlamchi tuxumdonlar polikistozi patogenezi (Shteyn–Levental sindromi) klinikasi, tashxis, davolash va profilaktikasini, ikkilamchi tuxumdonlar polikistozi klinikasi, tashxis, davolash va profilaktikasini;

-zamonaviy reproduktiv texnologiya nazariy asoslarini urganish;

-bachadondan qon ketish sabablari, ularning tasnifi (bachadondan anomal qon ketish va bachadondan organik qon ketish, nomenstrual postkoital qon ketish), pubertat yoshdagi, reproduktiv yoshdagi va premenopauzal yoshdagi bachadondan anomal qon ketishining (BAQK) etiopatogenezi, klinika, tashxis, profilaktika va oqibatini, BAQKni davolash tamoyillarini, bachadondan organik qon ketishi sabablari, tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolashni;

-menstruatsiya oldi sindromi: uchrash soni, patogenezi, klinik shakllari, tashxislash, davolash, oqibatini;

-postkastratsion sindromi: uchrash soni, patogenezi, klinik shakllari, tashxislash, davolash, oqibatini;

-klimakterik sindromi, simptomatika, patogenezi, davolash, nofarmokologik davosi, nogormonal vositalar bilan davolash va gormonal terapiya, shuningdek estrogen-defitsit metabolik buzilishni davolash (urogenital sindrom, atrofik kolpit va osteoporoz) va profilaktikasini;

-jinsiy a‘zolar pastki bo‘limining yallig‘lanish kasalliklari klinik shakllari, simptomatikasi, tashxislash va davolashni, jinsiy a‘zolarining xlamidioz, ureaplazmoz va virusli kasalliklarini, kichik chanoq a‘zolari nospetsifik yallig‘lanish kasalliklari, infeksiya tarqalish yo‘llari, tasnifi, klinika, tashxislashni, spetsifik yallig‘lanish kasalliklari (gonoreya, sil, OITS) klinikasi, tashxisini, ichki jinsiy a‘zolar yallig‘lanish kasalliklarini davolashning umumiy tamoyillarini, TORCH-infeksiyasi va ularning homiladorlik davrida olib keladigan asoratlari va davolash tamoyillarini;

-uroginekologiya asoslari (siydik pufagi-kin okmalari, siydik yullari okmalari, siydik tutolmaslik, genitalliy azolari prolapsi, siydik pufagi yatrogen travmasi kabi xolatlar klinikasi, tashxislash va davolash;

-abortlar tasnifi, etiopatogenezi, olib borish, asoratlarini, medikamentoz abortni olib borish, asoratlarini;

-trofoblastik kasallik tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash usullarini;

-rivojlanmagan homiladorlik klinikasi, tashxislash va davolash usullarini;

-ektolik homiladorlikni, naydagi homiladorlik tasnifi, etiopatogenezi, klinik shakllari, buzilgan naydagi homiladorlikni klinik kechish xususiyati,

simptomatikasi, qiyosiy tashxislash, jarroqlik va jarroqsiz davolash usullarini,ektopik homiladorlikning kam uchraydigan turlari, shuningdek bachadon bo‘ynidagi homiladorlikni,ektopik homiladorlik prognozi va kechki asoratlarini;

-tashqi jinsiy a‘zolarining asosiy fon va rakoldi kasalliklari (krauroz, vulva leykoplakiyasi) tashxislash va davolashni,bachadon bo‘yni fon va rakoldi kasalliklari, klinikasi, tashxis va davolashni;

-endometriy rakoldi kasalliklari (atipik bezli giperplaziya, neyroendokrin sindrom fonida bezli giperplaziya qaytalanishi)ni,endometriy rakoldi kasalliklarining klinikasi, tashxislash, gormonal va jarroxlik usulli bilan davolashni;

-endometriozi tasnifi, etiologiyasini, endometriozi har xil shakllarining klinik kechishi, zamonaviy usullar bilan tashxislash, davolash tamoyillari, profilaktikasini;

-bachadon miomasi, tasnifi, patogenez, klinikasi, zamonaviy usullar bilan tashxislash, konservativ va jarroxlik davolashga ko‘rsatmalar, oqibatini;

-tuxumdonlar xavfsiz o‘smalarini tasnifi, klinikasi, tashxislash, asoratlari, davolashni,tuxumdonlar oddiy kistalarini tashxislash va davolash tamoyillarini;

-ginekologiyada utkir korin tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash usullarini;

-ayollar seksopatologiyasi tasnifi, klinikasi, tashxislash va davolash usullarini;

-bepushtlikning tasnifi, etiopatogenezini, zamonaviy tashxislash usullari va davolashni;

-oilani rejalashtirish tamoyillari, kontratsepsiya usullarining tasnifini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

-anamnez yig‘ish, xavf omillarini baxolash;

-ayollar jinsiy a‘zolari kasalliklarini va reproduktiv tizim buzilish faoliyatini klinik, laborator va instrumental tashxislash va davolash;

-birlamchi v ikkilamchi amenoreya, bachadondan funktsional va organik qon ketishini tashxislash va davolash;

-jinsiy tizimning yuqori va pastki bo‘limlarining yallig‘lanish kasalliklarini tashxislash, TORCH – infeksiyasini davolash;

-homiladorlikning erta davrida qon ketish sabablarini aniqlash, davolash va kuzatiladigan asoratlarning oldini olish;

- epidemiologik vaziyatni xisobga olgan xolda COVID-19 ga chalingan xomiladorlarga tugri yordam kursatish;

-ayollar jinsiy a‘zolari fon va rakoldi kasalliklari, tuxumdonlar xavfsiz o‘smalarini tashxislash, ularni davolash;

-laparotomiya va laparoskopiya jarrohligini bajarish;

-funktsional tashxislash testlarni o‘tkazish;

-ko‘krak bezlarini palpatsiyasi, ko‘zgularda ko‘rik, bimanual ko‘rikni o‘tkazish;

-bachadon amputatsiyasi, ekstirpatsiyasi o‘tkazish;

-tuxumdon rezektsiyasi, tsistektomiya, adneksektomiyani o‘tkazish;

-salpingektomiya, salpingostomiyani o‘tkazish;

- bachadon bo‘yni, qin va oraliq plastik jarrohligini o‘tkazish;

- bachadon bo'shlig'ini qirish va vakuum aspiratsiyani bajarish;
- medikamentoz abort o'tkazish;
- gisteroskopiyani, gisterosalpingografiyani o'tkazish;
- Pappanikolau bo'yicha surtma olish;
- kengaytirilgan kolposkopiyani o'tkazish;
- paratservikal anesteziyani o'tkazish;
- bartolin bezi abstsessini, gematokolpoksni davolash;
- orqa gumbaz punktsiyasini o'tkazish;
- bachadon bo'yni polipini davolash;
- bachadon ichi vositasini (BIV) qo'yish va olib tashlash,
- ixtiyotiriy jarrohlik sterilizatsiyasi (IJS) amaliyotini bajarish;
- ayollar bepustligini zamonaviy davolashda reproduktiv texnologiyari (ovulyatsiyani stimullash, ekstrakorporal urug'lantirish, sun'iy inseminatsiyasi) *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

### 3. Asosiy qism

**3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma tavsiyalar:**

#### Mutaxassislik modullar

#### 1 - o'quv yili

#### Akusherlik yunalishi bo'yicha 1 o'quv yili ma'ruzalar mavzusi

Ma'ruza mavzusi	Soat/kredit
1. Xomiladorlikda gipertenziv xolatlar	2
2. Somatik kasalliklari bor xomiladorlarni olib borish	2
3. Akusherlikda kon ketish onalar ulimi sabablaridan biri. Taktika, olib borish	2
4. Xomiladorlikda, tugruk davrida va tugrukdan keyingi davrlarda xarorat kutarilishi, ularni COVID-19 ga chalinganlik xavfini aniklash	2
<b>Jami</b>	<b>8 /0,2</b>

#### Ginekologiya yunalishi bo'yicha II o'quv yili ma'ruzalar mavzusi

Ma'ruza mavzusi	Soat/kredit
1. Ginekologiyada kindan kon ketish	2
2. JYBYuK mavjud bemorlarni diagnostikasi va olib borish zamonaviy yondashuv	2
3. Bachadon miomasi va endometrioz kasalliklari bor bemorlarni diagnostikasi va olib borishda shifokor taktikasi	2
